



NAMANGAN FIRST MEDICAL SCHOOL (Based on the years 1931-1945)

Shahzod Mashrapov
Base doctoral student
Namangan State University
Uzbekistan, Namangan

ABOUT ARTICLE

Key words: Namangan Medical School, Healthcare System, Medical Education, Scholarship, Student, Lesson.

Received: 20.05.25

Accepted: 22.05.25

Published: 24.05.25

Abstract: Namangan Medical School is one of the important educational institutions that made a significant contribution to the development of the healthcare system of the Uzbek SSR. This article aims to provide information about the history of the school's formation, its role in the medical field, and the educational processes. The main purpose of the research is to identify the stages of development of Namangan Medical School and to highlight its importance for the healthcare sector.

NAMANGANDAGI BIRINCHI TIBBIYOT MAKTABI (1931-1945-yillar misolida)

Shahzod Mashrapov
tayanch doktorant
Namangan davlat universiteti
O'zbekiston, Namangan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Namangan tibbiyot maktabi, Sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy ta'lim, stipendiya, o'quvchi, dars.

Annotatsiya: Namangan tibbiyot maktabi O'zbekiston SSRning tibbiyot sohasi rivojiga muhim hissa qo'shgan ta'lim muassasalaridan biridir. Mazkur maqola ushbu maktabning shakllanish tarixi, uning tibbiyot sohasidagi o'rni va ta'lim jarayonlari haqida ma'lumot berishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Namangan tibbiyot maktabining rivojlanish bosqichlarini aniqlash va uning tibbiyot sohasi uchun ahamiyatini yoritishdir.

ПЕРВАЯ МЕДИЦИНСКАЯ ШКОЛА В НАМАНГАНЕ (На примере 1931-1945 гг.)

Шахзод Маширапов

Базовый докторант

Наманганского государственного университета

Узбекистан, Наманган

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Наманганский медицинский колледж, система здравоохранения, стипендия, студент, урок.	Аннотация:	Наманганский медицинский колледж является одним из важных учебных заведений, внесших значительный вклад в развитие системы здравоохранения Узбекисанской ССР. В данной статье рассматривается история формирования этого колледжа, его роль в сфере медицины и особенности образовательных процессов. Основная цель исследования — определить этапы развития Наманганского медицинского колледжа и подчеркнуть его значение для сферы здравоохранения.
-----------------	--	------------	--

KIRISH

Bugungi kunda o'tmishdan to hozirga qadar barcha davrlarda inson sog'lig'iga bo'lgan e'tibor alohida o'rin tutgan. O'zbekiston SSRda ham sog'liqni saqlashni yaxshilashga alohida e'tibor berildi, chunki sotsializm qurishda yosh sovet hukumatiga sog'lom va tajribali insonlar kerak edi. Shu o'rinda har bir tashkil etilgan tibbiyot o'quv maskanlari inson salomatligini asrashda alohida o'rin tutadi. Namanganda tashkil etilgan birinchi tibbiyot maktabi ham o'zining tarixiy ahamiyati, pedagogik faoliyati va tibbiyot sohasidagi rivojlanishida o'ziga hos o'rin egallagan. Bu maktabning tashkil etilishi, O'zSSR tibbiyotining rivojlanishidagi bosqichlardan biri bo'ldi. Bu davrda Respublikaning boshqa hududlari kabi Namanganda ham tibbiyot sohasida o'zgarishlar va yangiliklar yuz berardi. Sovet Ittifoqida tibbiyot tizimi isloh qilinishi va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sezilarli darajada oshgan bo'lsada, lekin bu mahalliy aholini to'laqonli qamrab ololmadi.

Ushbu maqolada Namangandagi birinchi tibbiyot maktabiga oid Namangan viloyat arxivida saqlanayotgan E.I.Otaxanov nomli Namangan tibbiyot bilim yurti (F-26), Namangan muassasalar tarixi bo'yicha ma'lumotnomalar to'plami (F-796) kabi arxiv fondlari va "E.I.Otaxanov nomli Namangan tibbiyot bilim yurti" nomli kitob manbaviy ahamiyati ochib berilgan.

Maqolada Namangan viloyat arxiv hujjatlari asosida Namangandagi birinchi tibbiyot maktabi haqida ma'lumot beruvchi asosiy fondlarning manbaviy ahamiyati ochib berishda

tarixiy va tahliliy usullar qo'llanildi. Shuningdek, fondlardagi materiallar hujjatli tahlil usuli yordamida tahlil etilgan.

ASOSIY QISM

O'zbekiston SSRning turli hududlarida sog'liqni saqlashni rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda, jumladan, Namangan viloyatida ham sog'liqni saqlash tizimini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Respublikaning tibbiyot sohasida malakali kadrlar yetishmayotganligi sababli, tibbiyot o'quv maskanlari tashkil etish zaruriyati paydo bo'ldi va shaharda tibbiyot tizimini mustahkamlash va malakali tibbiyot hodimlarini tayyorlash maqsadida Sog'liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan 1931-yilda Namangan shahrida tibbiyot maktabi tashkil etildi. Bu maktab Toshkent davlat tibbiyot instituti (ToshMI) bazasiga qarashli bo'lib, bino fuqaro Shokirbayev Umarxondan 400 000 rublga sotib olingan[1]. Buning natijasida Namangan va uning atrofidagi joylarda o'zining malakali shifokor, feldsher va hamshiralarini yetishtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Mahalliy mutaxassislar tayyorlash imkoniyati, ularning soni oshishi mahalliy aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifati va qamrovi yaxshilanishiga olib keladi. Qolaversa jamiyatda sog'liqni saqlash madaniyati shakllantirishda tibbiyot maktabi faqat mutaxassis tayyorlash bilan cheklanmay, keng aholi orasida tibbiy bilimlarni targ'ib qilishga ham hissa qo'shadi. Natijada odamlar orasida sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sanitariya va gigiyenaga e'tibor qaratishni vujudga keltiradi. Ayollar uchun ham bu tibbiyot maktabi o'ziga hos imkoniyat ochilishiga sabab bo'ldi. Bu orqali endi ular ham ta'lim olish va mustaqil kasb egasi bo'lish imkoniyatini berdi. Bu o'z navbatida, jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi qisman bo'lsa ham oshishiga xizmat qildi.

Yangi tashkil etilgan maktabning birinchi direktori Gafar Hamroqulov bo'lgan, o'quv ishlari mudiri esa G'ofurov Rahim, pedagog o'qituvchi bo'lib esa O.Tuqiullin, M.Odiliy, Xasaniy, Kudrasheva, F.I.Klemenov va boshqalar faoliyat yuritganlar[1]. Maktabga qabul qilinuvchi talabalar soni 100 kishi etib belgilangan. Bu esa 470 ming aholiga[2] ega Namangan uyezdi uchun yetarli emasdi.

1931-1932-o'quv yilida G.Hamroqulov Sog'liqni saqlash komissarligiga ishga o'tgandan so'ng o'rniga direktorlikni Otaxon Dadabayev egalladi, o'quv ishlari mudiri etib F.I. Klemenov tayinlandi.[1] Maktab hali tashkil topgan davrda bu kabi rahbarlar almashinuvi o'quv maskanining barqarorligi va strategik rivojlanishiga salbiy ta'sir qilgan va har bir rahbar o'z uslubiga ega bo'lib, tez-tez almashish ta'lim muassasasining ichki tizimiga beqarorlik olib kelishi ehtimoli bor. Yangi tayinlangan rahbarning maktabni boshqarishga tayyorlik va tajriba yetarli bo'lmagan bo'lsa, bu maktabning dastlabki rivojlanish jarayonida muammolar tug'dirishi mumkin edi.

1932-yildan boshlab maktab o'quvchilariga yozda 15-iyundan 1-avgustga qadar ta'til berishgan. Ta'til muddati qisqa bo'lib, qariyb 45 kun davom etgan, bu esa iqlim sharoiti va chekka joylarda bolalarning yozgi qishloq mehnatiga jalb etilishini hisobga olganda yetarlicha uzoq bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga muallimlar ham 25-maydan yillik hisobotlarini topshirishgan va o'quvchilar bilan birgalikda mehnat ta'tiliga chiqishgan[3]. Bu esa o'z o'rnida ta'til paytda o'quvchi va o'qituvchilarning dam olishi emas, balki jamoat xo'jalik ishlariga jalb etilishi ham bo'lgan bo'lishi mumkin.

1934-1938-yillarda maktab direktori bo'lib ishlagan G'afurov SSSR konstitutsiyasi o'qituvchisi bo'lib ishladi. U yerda atigi 20 nafar o'qituvchi ishlagan, ulardan 5 nafari oliy, 3 nafari tugallanmagan oliy, 12 nafari o'rta ma'lumotli edi[1]. Atigi 20 nafar o'qituvchidan faqat 5 nafari to'liq oliy ma'lumotli bo'lishi – bu maktabdagi ta'lim sifati haqida jiddiy xavotir uyg'otadi. 12 nafar o'rta ma'lumotli o'qituvchining ishlashi – o'sha paytda kadrlar yetishmovchiligi borligini ko'rsatadi, lekin baribir o'quvchilarga berilayotgan ta'limning chuqurligi va sifatiga salbiy ta'sir qilgan bo'lishi aniq.

Maktabga hujjat qabul qilish jarayoni 1-iyundan 10-avgustgacha davom etgan. Sinovlar 20-avgustdan 25-avgustgacha davom etgan, darslar 1-sentabrdan boshlangan[4]. 1934-1935-o'quv yillarida maktab 1-avgustga qadar 320 ta qabul ajratmasiga atiga 52 ta hujjat kelib tushgan. Bundan kelib chiqadiki, o'sha yillardagi iqtisodiy qiyinchiliklar (masalan, 1930-yillar birinchi yarmidagi iqtisodiy inqirozi va ocharchilik) oilalarni bolalarini maktabga yuborishdan ko'ra, ular mehnat qilganini afzal ko'rishga majbur qilgan bo'lishi mumkin. Bunga qarshi maktabning faol o'qituvchilari rayonlar, zavodlarga borib, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishgan. Binoga qatnashga imkoniyati bo'lmaganlar uchun kechki o'quv hisobidan zavod va rayonlar oldida o'quv faoliyati tashkil etilgan[5].

Maktabda ehtiyojmandlar yotoqxona va moddiy rag'bat bilan ta'minlanib, o'qish natijalariga ko'ra ajratilgan. Moddiy yordam komissiyasi har 3 oyda 4 marotaba o'tkazilgan. O'quvchilarning mukofoti talabani ishlab chiqarish bilan hamohang davom etishidan qat'i nazar, butun yil davomida to'langan[1]. Bu siyosat ijtimoiy adolatni ko'zlagan, o'qishni keng ommalashtirish va ehtiyojmandlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy harakatlar bo'lgan. Biroq, bunday tizimning samaradorligi ko'pincha nazorat va resurslarga bog'liq bo'lgani sababli, u har doim samarali ishlagan deb bo'lmaydi.

Maktabda darslar ertalabki soat 09:00 da boshlanib, 15:30 ga qadar davom etgan. Bir kunda dars mashg'ulotlari 7 soatgacha yetgan, darslar davomiyligi 45 minut bo'lib, oradagi tanaffuslar 10 minutni tashkil etgan, soat 12:30 da 30 minutlik katta tanaffus bo'lgan, bu vaqtda o'quvchilar tushlik qilishgan[6]. O'sha davr sharoitida bu kabi kun tartibi – ta'lim

samaradorligini oshirish va o'quvchilarning muntazam bilim olishini ta'minlash uchun juda oqilona va zaruriy yechim bo'lgan. Biroq, uzoq muddatda bu yuklama o'quvchilarda charchoq va qiziqishni pasaytirishi ehtimoli ham mavjud.

Qabul chog'ida mahalliy millat vakillariga alohida e'tibor qaratildi. Masalan: O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligining 1935-yildagi buyrug'iga ko'ra, bu yilda o'quvchilar ishdan ajratilgan holda, 105 kishi qabul qilinsin, ularning 75 foizdan kam bo'lmagani o'zbeklar, 15 foizni boshqa milliy xalqlar va 10 foizni o'zbek tilini biladigan maxsus bolalar, partiya va komsomol xodimlari eng kami 45 foiz bo'lishi belgilandi. Maktabga talabalarni o'qishga qabul qilish vaqtida ro'yhatga olish qoidalariga qat'iy rioya qilinishi: umumiy ta'lim imtihonlari paytida amalga oshirilishi kerak, bunda liberal hamda rasmiy yondashuv bo'lmasligi kerak. Qabul qilingan ta'lim oluvchilar kamida 16 yoshda bo'lishi kerak. Bu hujjat va qoidalar zahirida Sovet davlati uchun sodiq, mahalliy, bilimli va siyosiy jihatdan yetuk kadrlar tayyorlash ko'zlab, bunda milliy tarkib va siyosiy ishonchlilik birday muhim rol o'ynagan. Shuningdek, ta'lim jarayonini tartibga solish va nazorat qilish kuchli bo'lgan. 1935-yilda abituriyentlar tibbiyot maktabining birinchi kursiga ona tili, matematika, ijtimoiy fanlar va tibbiyot fanlaridan kirish imtihonlarini topshirgan, bundan tashqari fizika, kimyo, ona tili va matematika fanlaridan yozma va og'zaki testlar topshirilgan, qolgan mavzular og'zaki edi. Yozma imkoniyati bo'lgan shaxslarga og'zaki topshirishga ruxsat berilmagan. Imtihon tizimining qat'iy va samarali bo'lishi, o'quvchilarning yuqori bilim darajasini va malakasini ta'minlab, shu bilan birga, bunday tizimning adolatli va samarali bo'lishi, ko'p holatlarda talabalarining o'z kuchlarini to'liq namoyon etishiga yordam bergan. Biroq, bu tizimning qat'iyligi ba'zi toifadagi abituriyentlar uchun qiyinchiliklar tug'dirgan, ayniqsa, yozma imtihonlar ba'zi ta'lim oluvchilarga mushkul holga solgan bo'lishi ehtimol. Tibbiyot maktabi 3 yillik o'qishdan so'ng bitiruvchilarini asosan Toshkent tibbiyot institutiga, ba'zan esa Samarqand tibbiyot institutiga yo'llagan. O'zbekiston SSR xalqining iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutulishiga yordam berish uchun ozmuncha ishlar qilinmadi. Sog'liqni saqlashning asosiy tamoyillari hayotga tatbiq etilib bo'ldi, ya'ni tibbiyot xizmati bepul, hammabop bo'ldi va ehtiyot choralari ko'rila boshladi. Sog'liqni saqlash Xalq Komissarligining "hamshiralar maktabini ochish to'g'risida"gi qarori asosida 1938-yilda Namangan tibbiyot maktabi hamshiralar maktabiga aylantirildi[1]. Namangan tibbiyot maktabining hamshiralar maktabiga aylantirilishi – o'sha davrining sog'liqni saqlash tizimi va ta'lim siyosatining rivojlanishi va maxsus kadrlar tayyorlashga qaratilgan va o'z navbatida, jamiyatda sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash va kengaytirishga, hamshiralarning roli va ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan. Bu maktabda o'qish muddati 1 yil bo'lib, 1-yanvardan 15-

fevralgacha hujjatlarni qabul qilingan. Bu maktabga 15 yoshdan to 35 yoshgacha bo'lgan barcha hujjat topshirishi mumkin[7].

Hamma narsa yangidan boshlandi: xususiy shaxsdan uy sotib olinib, yotoqxonaga aylantirilgan, o'quv binosida 18 ta o'quv xonasi ochilgan. Biroq mashg'ulotlar uchun joy yetarli emasligi sababli ayvon va yo'laklar qayta qurilib, sinf xonalariga aylantirildi. Kutubxona ochildi va unda 1020 kitob bor edi, ikkita ot va XVII asrdan beri ma'lum bo'lgan yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan yengil yarim yopilgan to'rt g'ildirakli, stendli, usti yopiq arava transport vazifasini bajargan[8].

Xalq farovonligi oshgan sayin tibbiyot hamshiralari tayyorlash sharoitlari ham yaxshilana bordi. 1940-yildan boshlab o'quvchilarga bepul ovqat berilgan. Mashg'ulotlar 3 muddatda tashkil etilib, darslar ertalabki 06:00 boshlanib, kechki soat 11-12 gacha davom etib, kerosin lampalar bilan elektr tokisiz ham dars o'tilgan[9]. O'quv jarayonining 06:00 dan 23:00-00:00 gacha borishi o'quvchilar salomatligiga jiddiy xavf tug'dirishi va bu ta'lim sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. 1941-yildan boshlab o'quvchilarning 30 foiziga oyiga 70 rubldan, a'lochi o'quvchilarga esa 140 rubldan stipendiya to'lana boshlagan[8].

Urush sovet kishilarining osoyishta hayotini buzdi. O'zbekistonga evakuatsiya qilingan korxonalar, yarador jangchilar eshelon-eselon bo'lib kelgan.

Minglab shifokorlar, tibbiyot hamshiralari frontga jo'nadi. Front ichkarisida ularning o'rnini tibbiyot instituti va tibbiyot maktablarining kechagi talabalari egalladilar. Ular shifokorlik kasbini ko'plab evakuatsiya qilingan gospihallarda, o'g'ir yarador bo'lgan jangchilarning to'shagi oldida o'rgana boshladilar. Namangan tibbiyot hamshiralari maktabi o'quvchilari g'alaba uchun kecha-yu kunduz kasalxonalar, gospihallarda navbatchilik qilishgan. Yarador jangchilar joniga malham bo'ldilar, joyi kelganda o'z qonlarini ham ayamaganlar.

1942-1943-o'quv yilida mo'ljalga ko'ra 180 nafar talaba bo'lishi kerak edi, aslida bu 160 nafar edi. Rejaga ko'ra 8 nafar shifokor bo'lishi kerak edi, 8 nafar edi, 7 nafar o'qituvchi, boshqa xodimlar 25 nafar edi, aslida esa 18 nafar. Jami shtatda 39 nafar ishchi bo'lib unda 9 nafari shifokor bo'lishi kerak edi, aslida esa 4 nafar shifokor ishlagan[1]. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, ko'zlangan maqsad va real holat o'rtasida katta tafovut mavjud bo'lgan. Ayniqsa, shifokorlar va xizmat xodimlari yetishmovchiligi ta'lim sifati va samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Bu – davrning og'irligi va tizimda resurslar bilan ishlashda mavjud bo'lgan qiyinchiliklarni ko'rsatadi.

Urush yillarida maktabga faqat Namangan viloyatidan emas, balki RSFSR, Ukraina, Belorussiya, Latviya, Litvaning dushman egallagan hududlaridan evakuatsiya qilingan yoshlar orasidan ham qabul qilingan. 1944-yildan Namangan shahar kasalxonasi tibbiyot maktabining

asosiy ish joyi bo'lib qoldi, kasalxona bosh shifokori tibbiyot maktabi direktori vazifasini bajardi. Bir yil o'tgach 1945-yilda tibbiyot hamshiralari maktabi feldsher-akusherlik maktabiga aylantirildi[8]. Ko'chirib keltirilgan yoshlarga ta'lim imkoniyati yaratilgani – insonparvarlik timsolidir, kasalxona va maktabning birlashuvi – ta'lim oluvchilarga nazariy hamda amaliy yaqinlashuv imkoniyatini yaratadi. Biroq, ko'chirib keltirilgan yoshlarning yashash, ovqatlanish, til va ruhiy moslashuvi kabi muammolar yuzaga kelgan. O'z o'rnida bosh shifokor bir vaqtning o'zida direktor bo'lishi – vaqt, e'tibor va boshqaruv sifatining pasayishiga olib kelgan. Bu holat sharoit taqozosi bilan qilingan bo'lsa-da, lekin echim emasdi.

Namangan feldsher- akusher (doya)lar tayyorlash maktabi 3 yillik bo'lib, bu bo'limga 7 yillik ma'lumotga ega bo'lgan yigit-qizlar qabul qilgan, tibbiyot hamshiralari bo'limi 2 yillik bo'lib, faqat xotin-qizlar topshirishi mumkin bo'lgan. Talabalikka tavsiya etilgan o'quvchilar moddiy ta'minot, oshxona va yotoqxonalar bilan ta'minlangan. Mahalliy millatdan bo'lgan vakillar o'qish haqidan ozod etilgan. O'qishga kiruvchilardan rus tili, arifmetika, SSSR konstitutsiyasi va o'zbek tilidan imtihon olingan. 1943-1944 o'quv yilida 7 yillik maktabni a'lo baholar bilan tamomlagan yigit-qizlar sinovlarsiz o'qishga qabul qilingan. O'quv dargohiga qabul qilinuvchilar o'zlari bilan direktor nomiga ariza, tarjimai hol, ma'lumoti haqida hujjat, sog'lom ekanligi haqida ma'lumotnoma va 3 dona surat talab etigan[10]. Qabul tartibi ma'muriy jihatdan murakkab bo'lgan. Qabul qilinuvchilardan ariza, tarjimai hol, sog'liq haqida ma'lumotnoma va 3 ta surat talab etilishi ortiqcha qog'ozbozlik bo'lib, kiruvchilar ortiqcha harakat bo'lib, ba'zi holatlarda chekka hududlarda yashovchi talabgorlarga qiyinchilik tug'dirgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Namangan tibbiyot maktabining shakllanishi va rivojlanishi O'zbekiston SSR tibbiyot tizimida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqola tarixiy, ilmiy va hujjatli asosga ega bo'lib, Namangandagi tibbiyot ta'limining ilk shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, tashkil etilgan shart-sharoitlar, ijtimoiy-siyosiy omillar va urush yillaridagi moslashuv jarayonlarini yoritib bergan. Shuni taklif qilish mumkinki, chuqur tarixga ega Namangan tibbiyot maktabi asosida bugungi kunda ham oliy tibbiy bilim yurtini ochish kerak. Mazkur maqola tibbiyot tarixi bilan qiziquvchi tadqiqotchilar uchun foydali ma'lumot bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Namangan viloyat arxivi, 796- Fond, 1-ro'yhat, 74-yig'ma jild, 3-13- varaqlar
2. Nam. vil. ar., 796-f., 1-ro'yhat, 51-y.j., 58-varaq
3. Nam. vil. ar., 26-f., 1-ro'yhat, 3-y.j., 32-varaq
4. Nam. vil. ar., 26-f., 1-ro'yhat, 38-y.j., 26-30-varaqlar

5. Nam. vil. ar., 26-f., 1-ro'yhat, 29-y.j., 47-varaq
6. Nam. vil. ar., 26-f., 1-ro'yhat, 38-y.j., 21-varaq
7. Закоммунизм. № 9 (139), 11-январ 1942
8. Э.И.Отахонов номидаги Наманган медитсина билим юрти. –Т.: Медитсина, 1988, –Б. 3-5
9. Nam. vil. ar., 26-f., 1-ro'yhat, 56-y.j., 3-5-varaqlar
10. Сталин хақиқати. № 120 (3371), 19-июнь 1945